PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIGA O‘QUVCHILARNI BOSHLANG‘ICH SINFDAN TAYYORLASH

Umarov Husniddin Egamboyevich
Guliston davlat pedagogika instituti Katta o‘qituvchisi
Mahmudova Sabina Amriddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarini o‘z ichiga olgan PISA xalqaro baholash dasturiga o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan tayyorlash maqsadga muvofiq. Chunki PISA PIRLS va TIMSSning mantiqiy davomi bo‘lib, ushbu baholash dasturlarida ishtirok etgan yoki bularga muvofiq ta’lim olgan o‘quvchilarda PISA uchun asosiy poydevor shakllanadi. Buni esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari shakllantirishlari lozim. Mazkur maqolada PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlarida o‘quvchilarimizning ishtiroki mamlakatimiz ta’lim sifatiga ta’siri, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, xalqaro baholash dasturi, o‘qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, mushohada, muammoli ta’lim.

Abstract: it is advisable to prepare students for the international assessment program PISA, which includes the PIRLS and TIMSS international assessment programs, from primary school. This is because PISA is a logical continuation of PIRLS and TIMSS, and students who have participated in or received education aligned with these assessment programs develop a foundational basis for PISA. This foundation should be established by primary school teachers.

Keywords: PISA international assessment program, PIRLS program, TIMSS program, reflection, problem-based learning.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’limga oid ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni asosida qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da aks ettirilgan. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi ilk bor PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etgani barchamizga ma’lum. Ushbu baholash dasturining natijalari chiqqandan so‘ng yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev shaxsan o‘zlari video selektr o‘tkazdilar.

PISA xalqaro baholash dasturi nima? PISA dasturi bu o‘quvchilarining o‘qish, matematika, tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud talablar asosida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu xalqaro baholash dasturi har uch yildan bir marta 15 yoshdagi o‘quvchilar orasida o‘tkaziladi. Ushbu dasturga o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdan tayyorlash lozim. Chunki bolalarning bilim olishlariga poydevor qo‘yiladigan eng asosiy davr boshlang‘ich 1-4-sinfda ta’lim olayotgan davrlaridir. Boshlang‘ich sinfdagi bilimlari kelajakda oladigan bilimlariga zamin yaratadi. Bugun PIRLS dasturida ishtirok etgan o‘quvchi ertaga PISA dasturida ishtirok etishi mumkin. PIRLS dasturi o‘z ichiga olgan ona tili o‘qish savodxonligini baholash, TIMSS dasturi o‘z ichiga olgan matematika va tabiiy fanlardan bilimlarini baholash PISAda ham o‘z aksini topgan. Ushbu baholash dasturiga tayyorlashda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash va mushohada yuritishga o‘rgatish lozim. Bu esa o‘quvchining bilimiga uning miyasidagi ma’lumotlarga borib taqaladi. O‘quvchi olgan ma’lumotlarini tahlil qilishi, ularni amalda qo‘llay olishi, ularga munosabat bildira olishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarning fikrlashini oshirishga qaratilgan muammoli ta’lim, mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan matn bilan ishlash, mantiqiy misol va masalalarni yechishga o‘rgatishdan boshlash kerak. Bundan keyingi bosqichda esa

o‘quvchilarga tahlil qilishni o‘rgatish lozim. Tahlilni matn asosidagi mushohadali savollar doirasida o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchi ma’lum bir savolning to‘g‘ri javobinigina emas, balki, boshqa javoblar nima uchun to‘g‘ri emasligini anglashi, unga o‘z munosabatini bildira olishi kerak. Mantiqiy misol va masalalarni yechishga o‘rgatish esa aniqlarini o‘rgatib so‘ng, bosqichma- bosqichida soddadan murakkabga qarab boradi. Har bir matematika darsida kamida bitta mantiqiy misol va masala ustida bosh qotirilsa, o‘quvchining mantiqiy fikr yuritishi kengayadi. Tabiiy fanni o‘qitish esa kitobdagi ma’lumotlar bilangina cheklanib qolishi kerak emas. Mavzu yuzasidan o‘qituvchi o‘rganib kelgan qiziqarli faktlar bilan bo‘lishishi va unga o‘quvchining munosabatini o‘rganish lozim.

O‘quvchining qay darajada bilim olib, kamol topishida o‘qituvchining, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining, o‘rni katta. Shunday ekan buni birinchi qadamdan, bola aynan maktabga kelgan ilk kunidan boshlash lozim. Chunki davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

2. Mahmudova Sabina, Umarov Husniddin "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish". Berlin "ISOC"